



“BOBURNOMA”DA JIZZAX VOHASIGA OID JOY NOMLARINING IFODA ETILISHI

**Mahammatov Akram Rayimqulovich,
Jizzax DPU o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Jizzax viloyati toponimlari haqida yozib qoldirilgan ma’lumotlar hamda mazkur toponimlarning tarixiy-etimologik ma’nosi haqidagi tadqiqotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, Zomin, Pishog‘ar, Dizak, Sangzor.

Аннотация: В статье описаны сведения о топонимах Джизакской области в произведении Захириддина Мухаммада Бабура «Бобурнома» и исследование историко-этимологического значения этих топонимов.

Ключевые слова: “Бабурنامه”, Заамин, Пешогар, Дизак, Сангзар.

Annotation: The article describes the information about the toponyms of Jizzakh region in Zahiriddin Muhammad Babur's work "Boburnoma" and research on the historical and etymological meaning of these toponyms.

Key words: “Boburnoma”, Zomin, Pishoghar, Dizak, Sangzor.

Kirish

Jadallik va tezkorlik bilan yorqin kelajak sari dadil ildamlayotgan Yangi O‘zbekistonda ko‘plab bunyodkorlik va yangilanish ishlari olib borilmoqda. Barcha sohalaridagi bo‘lgani kabi ilm-fanda ham jiddiy o‘zgarishlar, yangilanishlarga shart-sharoit yaratib berilmoqda. Tarixiy merosni, milliy qadriyatlarni tiklash va boyitishda ham katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Nafaqat, Mustaqil O‘zbekiston tarixi, balki Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm tarixlari ham yaratildi. Mamlakatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan viloyatlar, qadimiy shaharlar tarixini qadimiyatdan hozirgi davrgacha yaratish tajribasi shakllandi. Bu borada Jizzax viloyat tarixini yaratish kun tartibidagi vazifalar sirasiga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadim tarixga ega bo‘lgan Jizzax vohasi ko‘plab tarixchi, geograf va sayohatchilarning asarlarida, kundaliklarida qayd qilindi. Jumladan, shoh va shoir





hisoblangan Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham Jizzax vohasi alohida tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

“O‘zining betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz – Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish kerak.

Nega deganda, Bobur Mirzo – Temuriylar Renessansining munosib davomchisi, ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot, iste’dod homiysi bo‘lgan buyuk shaxsdir.

Chunki, takror aytishga to‘g‘ri keladi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olamga mashhur ajdodlarimiz borligini, ular O‘zbekiston farzandi ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak”, – deya muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 15-aprel kuni Andijon viloyatida yangi barpo etilgan Bobur shahrida o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqlarida alohida ta’kidlagan edilar¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zahiriddin Muhammad Bobur yoshlikdan o‘ta chigal va tahlkali taqdir yo‘liga duch keldi. Bu og‘ir qismat uni ona yurtidan bosh olib, o‘zga bir ellarda ne bir mushkulotlar, ko‘rgiliklar dovuqli sulolaning shijoatli asoschisi bo‘lishdek taqdir bilan sharafladi. 1496-yilda Samarqandni zabt etishi uchun 15 yoshga qadam qo‘ygan Zahiriddin Muhammad Bobur yo‘lga tushdi. Qish qahratoni yaqin qolganidan Samarqand zabtini ortga qoldiradi. Kelgusi yil may oyida yana Samarqand sari otlanadi.

Jizzaxning Yoryayloq mavzesida (taxminimizcha Baxmal va Sharof Rashidov tumanlarining tog‘ oldi hududlari ya’ni Rovot qishlog‘i atroflari hamda Zomin tumanining Pishag‘or qishlog‘i hududlari Yoryayloq mavzesi bo‘lishi mumkin) to‘xtashga majbur bo‘ladi.

Bu haqda Bobur shunday yozadi: “Biz bir-ikki kundan so‘ng Sheroz qo‘rg‘oniga (taxminan hozirgi Baxmal tumanidagi Barlos qishlog‘i hududi bo‘lishi mumkin) yetdik. Bu paytda Sheroz Qosim do‘ldoyda edi. Qo‘rg‘onbegi Sherozni saqlay olmay, qo‘rg‘onni topshirdi. U Sheroz qo‘rg‘oni Ibrohim Soru ixtiyoriga berildi. Tongda fitr hayiti namozini o‘sha yerda o‘qib, Samarqand sari yo‘lga chiqib, Obyor istirohatgohiga tushdik”. (Boburnoma, 2008, 52-bet).

¹ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 15 aprelda Andijon viloyatida yangi barpo etilgan Bobur shahrida o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi





Shundan so'ng Bobur Samarqandni olish niyati uni shahar yaqinidagi hududlarda qariyb yetti oyni payt poylab o'tqazdi.

1498-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand va Andijonga "takroran yurish qilib, hech ish chiqara olmay" Xo'jandga qaytadi. 1498-1499-yillar qish mavsumini Samarqandga yaqinroq bo'lsin, degan xayollar bilan O'ratepa hokimi Sulton Muhammad Husayn dug'lotga Yoryayloqqa qarashli Pishog'orda o'tqazishga rozilik berishini so'rab kishi yuboradi. Xo'janddan Pishag'orga jo'naydi. Zominga kelganida garchi isitmalagan bo'lsada, Zominsoy orqali Sangzorga, undan Samarqand yaqinidagi Raboti Xo'ja qo'rg'oniga yetib keladi. Saharda qo'rg'onga shoti qo'yib chiqmoqchi bo'lishganda el xabardor bo'lib, orqaga qaytib Pishag'orga keladi. Pishag'orda bir necha kun istimalab yotib qoladi. Bu paytda uning "ikki yuzdan ko'proq, uch yuzdan ozroq" lashkari bor edi. Shuncha lashkari bilan qish mavsumini Pishag'orda o'tkazish oson emasdi. Qolaversa, Pishag'or qo'rg'oniga joylashgani bilan ozuqa, yem-xashak zahirasiga ehtiyoj har kunlik holat hisoblanadi.

Qish mavsumida Bobur Yoryayloq qishloq va qo'rg'onlarni o'z ixtiyoriga olish uchun Ibrohim Soru, Vays Log'ariy va Shirim tog'oyilar rahbarligidagi ishonchli beklar va yigitlardan tashkil topgan ilg'or guruh tashkil etadi. Ular "Yoryayloq qo'rg'onlarini so'z yo kuch bilan qo'lga olish"lari lozim edi. Shu 1498 yilda Yoryayloq hokimi Sayyid Yusufbek edi. U ukasi va o'g'liga Yoryayloq qo'rg'onlarini himoya qilib turishni tayin etgandi. Qish mavsumi o'tgancha Yoryayloq qo'rg'onlari (har bir qishloqda qo'rg'on bor edi) Bobur ixtiyoriga o'tadi. 1499-yil yoziga kelganda Samarqanddan Xo'ja Yahyo sulh tuzish maqsadida elchilikka keladi.

Samarqand taxti umidi uni ancha kuttirdi. Nihoyat noyabr oyi oxirida Samarqand taxtiga o'tirdi. Atigi yuz kun hukmdor bo'ldi.

Shundan so'ng yana Samarqand umidi bilan Toshkentdagi tog'asi Sulton Mahmudxondan yordam so'raydi. Sulton Mahmudxon o'g'li Muhammad Xonika va Ahmadbekni 4-5 ming atrofida qo'shin bilan Samarqand sari yuboradi. Qo'shin Yoryayloqqa yetib keladi. "Men – deb yozadi Z.M.Bobur – Bo'rka yaylovi orqali Yoryayloqning dorug'asi turadigan Sangzor qo'rg'oniga (Baxmal) keldim. Sulton Muhammad Xonika va Ahmadboq Shayboniyxonning kelib Sheroz va uning atroflarini talaganini eshitib, orqaga qaytibdilar. Zarurat bo'ldi, men ham qaytib Xo'jandga keldim". (Boburnoma, 2008, 61).





Nihoyat, 1499 yilning kuzida Bobur yana Samarqandni egallash uchun otlandi. “O‘ratepadan Bo‘rka yaylovi yo‘li bilan Sangzorga keldik. Sangzor dorug‘asi qo‘rg‘onni berdi. Qanbar Ali tutilib, oldirib kelishgan edi, uni Sangzorda qo‘yib o‘tdik... Mening bir yaxshi rioyat qilgan begim – Ali Do‘st tuttirib quvlagan Ibrohim Sopu minglig‘ men Yoryayloqqa kelgan fursatda Sayyid Yusufbekning o‘g‘li Muhammad Yusuf bilan kelib mulozamat qildi”.

Shayboniyxonning Samarqandni qo‘lga kiritganidan xabar topgan Bobur Hisorga ketib, yana Yoryayloqqa qaytadi. “Bir kuni Asfidak qo‘rg‘onida hamma ichkilar: Do‘st Nosir, No‘yon ko‘kaldosh, Xonqo‘li, Karimdod, Shayx Darvesh, Xusrav ko‘kaldosh, Mirim Nosir singarilar hozir edilar, mening qoshimda o‘tirgan edilar. Har to‘g‘ridan orada so‘z o‘tar edi. Dedimki, qani aytinglarchi, Tangri to‘g‘ri keltirsa, Samarqanni qachon olgaymiz? Ba‘zilar dedilarki: Yozda olgaymiz. U mahal kech kuz edi. Ba‘zilar: Bir oy, ba‘zilar qirq kundan so‘ng, ba‘zilar yigirma kundan so‘ng dedilar. No‘yon Ko‘kaldosh dediki; o‘n to‘rt kunda olgaymiz. Tangri to‘g‘ri keltirdi; roppa-rosa o‘n to‘rt kundayoq Samarqandni oldik”. (“Boburnoma”; 77).

Afsuski, bu safar ham Samarqand taxtini saqlab qolish mushkul bo‘ldi! Shahar a‘yonlari bilan til biriktirib, Samarqand taxtiga o‘tirgan hamon Shayboniyxon tahdidi kuchayganidan kuchayib bordi. Shahar tashqarisida Shayboniyxon bilan olib borilgan jang unga foyda bermadi. Qamalda qoldi. Ko‘plab mansabdorlari tashlab ketishdi. Uzoq kechgan qamal qahatchilikni keltirdi.

Nihoyat Shayboniyxon bilan tuzilgan sulhga binoan o‘z oila a‘zolari bilan yarim tunda Zahiriddin Muhammad Bobur shahar darvozasidan bosh olib chiqib ketadi. “So‘g‘dning ulug‘ shaharlarida qorong‘u kechada urinib, yo‘l yo‘qotib, yuz tashvish bilan tong otganda Hoja Diydordan o‘tib, Qorbut tepaligiga tirmashdik. Qorbut tepaligining shimolidan Xo‘dak kentining etagi bilan Ilono‘tini (hozirgi Ilono‘tti darasi) tusmallab jo‘nadik. Kechqurun asr namozi chog‘ Ilono‘ttida tushib, ot so‘yib etini kabob qildik. Otlarni biroz tindirib so‘ng yo‘lga tushdik” (“Boburnoma”, 84).

Shundan so‘ng Bobur hamrohlari bilan “tong otmasdan Xaliliya qishlog‘iga yetib” keladi. Xaliliyada to‘xtamay Dizakka keladi. Shu vaqtda Dizakda Hofiz Muhammadbek do‘ldoyning o‘g‘li Toxir do‘ldoy qo‘rg‘onbegi edi. Otasi ham, qo‘rg‘onbegi Toxir do‘ldoy ham Boburga Andijondan tanish edi.





Qolaversa, bu yerda “semiz go’shtlar va non arzon, chuchuk qovun va yaxshi uzumlar farovon”. Shuning uchun ham “Umrimizda buncha farog‘at qilmagan edik. Umr bo‘yi omonlik va arzonchilik kadrini bunchalik bilmagandik”, – deya tan oladi Z.M.Bobur (“Boburnoma”, 84).

Uch-to‘rt kun Jizzaxda dam olganidan so‘ng, O‘ratepaga borish uchun otlanadi. Bu payt O‘ratepada onasi Qutlug‘ Nigorxonimning singlisi Mehr Nigorxonim yashar, eri Sulton Muhammad Husayn ko‘ragon O‘ratepada hokimlik qilardi. Bobur garchi yo‘ldan biroz chetda bo‘lsada, Pishag‘orga o‘tib u joyni sayr qildi. Ammo, bu sayr uning oxirgi vidolashuv sayri edi.

Shunga qaramasdan. Z.M.Bobur juda qisqa vaqt ichida Jizzax, Zomin Pishag‘or, Yoryayloq qo‘rg‘onlarida bir necha bor bo‘ldi. Viloyat hududining strategik ahamiyatini Bobur ham o‘z yurishlarida ko‘rib ulgurgan edi. Xullas, u har gal Samarqandga otlanganda va yo Andijonga qaytganda viloyatdagi ko‘pgina manzillarda bo‘ldi.

Qolaversa, Jizzax, Zomin, Pishag‘or, Sangzor, Yoryayloq, Kunboy (G‘allaorol) hududlari, Afsidak, Sheroz kabi joylar uning uzoq yillar xotirasida saqlanib qoldi.

Boburning Jizzaxda ko‘rgan hurmat-e‘tibori, pohat farog‘ati, huzur-halovatida shahar hokimi Tohir do‘ldoyning alohida xizmati bo‘lganligini rad etib bo‘lmaydi. Tohir do‘ldoy mansub oila yillar davomida Sulton Abusaid Mirzoning farzandlari, nabiralariga eshik og‘asi sifatida halol xizmat qilib kelgan. Hirotu Samarqandda, Andijon Jizzaxda ularni ko‘plar yaxshi bilishgan, hurmat qilishgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham otasi Umarshayx mirzoning umarolari haqida ma’lumotlar berganda mavqei jihatidan Hofiz Muhammad do‘ldoyni ikkinchi o‘rinda ko‘rsatadi. Birinchi umarosi Xudoyberdi Temirtosh Andijonga hokim qilib yuborilganidan ikki yil o‘tmay O‘shda bo‘lib o‘tgan jangda shahid bo‘ladi. Shu voqeadan so‘ng Abusaid mirzo Hofiz Muhammadbek do‘ldoyni Umarshayx mirzoga eshik og‘asi etib tayinlaydi. Shunday qilib, Hofiz do‘ldoy XV asrning 60-yillari o‘rtalaridan Umarshayx Mirzo nomidan Andijon hukumatini boshqaradi. “Sulton Abdusaid Mirzoning o‘limidan so‘ng (1469-yil) Andijon beklari u bilan yaxshi chiqishmaganlari tufayli Samarqandga Sulton Ahmad mirzo xizmatiga ketdi. Bu vaqtda akasi Sulton Ahmad mirzoning eshik og‘asi edi. Akasi yordami bilan O‘ratepa hokimligini olgan edi. Sulton Ahmad mirzo Chir daryosi bo‘yida yengilganda u





O‘ratepada erdi. Umarshayx mirzo Samarqandga yurish qilib O‘ratepa ustiga kelganda O‘ratepani mirzoga topshirib, mirzo uning xizmatida bo‘ldi. Umarshayx mirzo ham Andijon hokimligini unga berdi. So‘ngra Sulton Mahmudxon qoshiga bordi. Sulton Mahmudxon Mirzoxonni unga topshirib, Dizak (Jizzax)ni berdi. Men Qobulni olganimdan burunroq Makkaga otlanib, Hind yo‘li orqali safar qildi. Yo‘lda Tangri rahmatiga boribdi. Faqir, kamgap va odmi kishi edi” (“Boburnoma”, 36).

Bobur 1496 yilda Samarqand sari otlanib dastlab Bulung‘ur tumanidagi Qo‘riqqa, undan so‘ng Raboti Xo‘ja yaqinidagi Xon yurtiga boradi. Bir muncha vaqt Urgutda bo‘lib, keyin Samarqandni qamal qiladi. Qamalning avvalida shaharga ilg‘or qilingan beklari bir necha kishini tutib keltirishadi. Ular orasida Yoryayloq hududidagi qishloqlar va qo‘rg‘onlar begi Sayyid Yusufbek ham bor edi.

Bir muncha vaqt Samarqandni qo‘lga kiritish qasdidagi qo‘shin to‘plash umidi bilan Toshkentda kelgan Bobur 1498 yil qish oldi O‘ratepa hokimi Muhammad Husayn dug‘lotning roziligini olib Pishog‘orga qarab yo‘lga chiqali. Pishag‘or bu vaqtda Xo‘ja Axror Valiyning vaqf yerlari edi. 13-14 kun Bobur Pishag‘orda xastalanib yotib qoladi. Keyingi safar ham Bobur Bo‘rka (Suffa) yaylovi yo‘li bilan Sangzorga kelib, Sangzor dorug‘asi qo‘rg‘on ixtiyorini beradi. Bu yerda biroz to‘xtab Raboti Xo‘ja yaqinidagi Xon yurtiga, undan Darg‘om bo‘yiga boradi. Samarqand kirishiga Xo‘ja Yaxyodan rozilik bo‘lmay, Sangzorga qaytganida Ibroxim Sori bilan Sayyid Yusufbekning to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammad Yusufbek ham Bobur xizmatiga kiradi.

Jizzax viloyati tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur bilan bog‘liq voqealar ham anchagina. Otasi Umarshayx vafotidan so‘ng Andijon taxtiga o‘tirgan 12 yoshlik Mirzo Boburning o‘spirinlik yillari ham Samarqand taxti ilinjida ne bir dolg‘ali, chigal voqealarda kechdi. Bir necha bor Andijondan Samarqandga, Samarqanddan Andijonga otlanganida Zomin, Pishog‘ar, Jizzax, Sangzor, Sheroz kabi shaharu qishloqlarda, qo‘rg‘onlarida bo‘ldi. Bir safar isitmaga chalinganida tuzalguncha Pishag‘orda to‘xtab qoldi. Samarqandni Shayboniyxonga qoldirib, mag‘lubiyat alamidani bosh olib chiqqanida Jizzaxda rohat topganligini “Boburnoma”da ichki qoniqish bilan xotirlaydi: “Xaliliyadan Dizakka kelindi. U fursatda Dizakda Hofiz Muhammadbek do‘ldoyning o‘g‘li Tohir do‘ldoy qo‘rg‘onbegi edi. Semiz go‘shlar va non arzon, chuchuk qovun va yaxshi uzumlar farovon. Unday mashaqqatdin, bunday arzonchilik va unday falokatlardan bunday omonlikka keldik. o‘lim vahimasi ko‘ngildan ko‘tarilib, ochlik





shiddati eldan daf bo'ldi. Umr bo'yi omonlik va arzonchilik qadrini bunday bilmagandik".

Shu bilan birga, Zahiriddin Muhammad Bobur viloyatning shaharu qishloqlaridan bir umrlik qadrdonlar topadi. Bulardan biri Jizzax hokimi, o'zi yaxshi bilgan va otasi bir necha yil Andijon hukumatini boshqargan Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy edi. Tohir do'ldoy mansub oila Toshkent, Andijon, Samarqand, Qobul kabi shaharlarda katta nufuzga ega oila bo'lgan. Qolaversa, Hofiz Muhammadbek do'ldoy Sulton Vays Mirzo bilan 1496 yildan Jizzaxda yashagan. Bobur bilan 1498 yildan boshlab uzoq yillar safdosh bo'lgan Mulla Bobo Pishog'oriy va ukasi Boboshayx, Sangzor qo'rg'onbegisi Sayid Yusufbek, ukalari Sayid Hasan va Ahmad Yusufbek, o'g'li Muhammad Yusufbeklar bilan shu yurtida qadrdon bo'lib qolgan edi. Ahmad Yusufbek bir umr Boburning xos qo'riqchisi, qo'riqchi qo'shin boshlig'i sifatida xizmat qildi. U podshohlikni tark etganida ham Ahmad Yusufbek uning xizmatida edi. Mulla Bobo Pishog'oriy esa uning eng yaqin kishilaridan bo'lib, biron-bir harbiy yurishga yo'l olganida u Qobul dorug'aligini bajarib turishga qoldirilgan edi.

XULOSA

Umuman olganda, jannatmakon diyorumizning qoq markazida joylashgan Jizzax vohasi asrlar davomida ko'plab taloto'plarni, jangu jadallarni guvohi bo'ldi. Jizzax vohasi tasviri yunon va arab tarixchilari asarlarida ham tilga olindi. Go'zal tabiati o'zgacha tarzda tarixchilar tilida tasvirlandi. Jumladan, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarida ham Jizzax vohasini o'zgacha tarzda tasvirlaganligini ko'rdik.

REFERENCES:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatida yangi barpo etilgan Bobur shahrida o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi. 2025 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" –T.: "Ma'naviyat"-2008
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma" -T.: O'qituvchi, 2008.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur „Boburnoma“ Toshkent „Yangi asr avlodi“, 2015.
5. Bobur ensiklopediyasi. -T: Sharq, 2017.

